



Science technology & Digital finance

journal homepage: <https://supportresult.uz/index.php/stdf>

WAYS TO IMPROVE THE QUALITY AND EFFICIENCY OF THE EDUCATIONAL SYSTEM

¹Mustafakulov Asatulla Asrorovich, ²Usanov Ulugbek Abdurauf ogli¹Associate professor of Jizzakh Polytechnic Institute.²Master of Jizzakh Polytechnic Institute.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

¹Мустафакулов Асатулла Асрорович, ²Усанов Улугбек Абдурауф оглы¹Доцент Джизакского политехнического института.²Магистрант Джизакского политехнического института.

TA'LIM TIZIMINING SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

¹Mustafaqulov Asatulla Asrorovich, ²Usanov Ulug'bek Abdurauf o'g'li¹Jizzax politexnika instituti dotsenti.²Jizzax politexnika instituti magistranti.

abstract

There are enlightened some issues of increasing of management in the sphere of higher educational institutions and improving of preparation of compete able personal as educates of different spheres are increasing and widening of study demand by appearing of new specialists.

аннотация

Освещаются вопросы повышения уровня менеджмента в высших учебных заведениях и повышения уровня подготовки конкурентоспособных кадров по мере увеличения образования различных сфер и увеличения потребности в учебе за счет появления новых специалистов.

annotatsiya

Ushbu maqola yildan-yilga sifatli ta'lim olishni xohlovchilar sonining keskin oshib borayotganligi, ta'lim oluvchilarning o'qish ehtiyojlari kengayib borishi, yangi mutaxassisliklarning paydo

bo'lishidan kelib chiqqan holda oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini boshqarish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni takomillashtirishning ayrim masalalariga bag'ishlangan.

Keywords:

Quality of education, management quality of education, modern tendencies.

Ключевые слова:

качество образования, качество управления образованием, современные тенденции.

Kalit so'zlar:

Ta'lim sifati, ta'lim sifatini boshqarish, zamonaviy tendensiyalar.

©2023. Mustafakulov Asatulla Asrorovich, Usanov Ulugbek Abdurauf ogli.

Jahon iqtisodiy va ijtimoiy hayotida yuz berayotgan bugungi globallashuv sharoitlarida ta'limning sifat va samaradorligini oshirish jamiyat barqarorligi va insonlar farovon turmushining garovi sifatida namoyon bo'lmoqda. O'z navbatida kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutgan holda ta'lim oluvchilarda bilim olishga va yangiliklarni puxta o'zlashtirishga ehtiyojni, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishni uzluksiz ta'lim jarayonlarining asosiy vazifalari sifatida belgilab berdi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vazifalarni amalga oshirish, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonlari samaradorligini ta'minlash pedagogik jarayonlar ishtirokchilari hisoblangan ta'lim muassasasi rahbarlari, o'qituvchilar, tarbiyachilar va boshqa mutaxassis xodimlarning faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zaruriyatini belgilaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim jarayoni ishtirokchilari ehtiyojlari, shuningdek, fan, ta'lim, ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqib, raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlashda uzluksiz ta'lim tizimining asosiy komponentlari hisoblangan maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining integrativ tabiatiga mos ta'lim jarayonlari samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni tanlash, hamda pedagogik jarayonlarda vujudga kelayotgan muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etishning eng asosiy omillaridan biri bo'lgan pedagogik jarayonlarni o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlashda mazkur jarayon ishtirokchilarining ichki imkoniyatlarini harakatga keltiruvchi, tushunchalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga ko'maklashuvchi jarayonlar hisoblangan ta'lim, mustaqil ta'lim, tarbiya, o'zini-o'zi tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan pedagogik jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni, mavjud ziddiyatlarni va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash; pedagogik tizim komponentlarining o'zaro aloqadorligi va

bog'liqligini ta'minlash; ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va takomillashtirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ya'ni pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun o'quv-seminarlari tashkil etish va o'quv-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash; ta'lim muassasasi, oila, mahalla, jamoaviy boshqaruv organlari va jamoatchilik tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish pedagogik tizimning asosiy komponentlari hisoblangan ta'lim-tarbiya jarayonlari samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Respublikamizda ta'lim tizimining rivojlanishi, ular uchun pedagoglar tayyorlash bilan bog'liq jarayonlardagi muammolarni tadqiq etish va ijobiy natijalarga olib keluvchi takliflar bergan olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim oluvchilar uchun tashkil etiladigan ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, to'garak mashg'ulotlari, ekskursiya, davra suhbat, uchrashuvlar, fanlar bo'yicha tashkil etiladigan musobaqa va tanlovlar, san'at festivallari, konferensiya va boshqa turli yo'nalishlardagi tadbirlar (pedagogik tahlil, o'zaro darslarni kuzatish, ustoz-shogird tizimi, maslahatlar)ni, o'quvchi, talaba va o'qituvchilarning o'zlari tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil ta'lim, o'zini-o'zi tarbiya qilish, mustaqil ma'lumot, mustaqil ishlanma, shuningdek shaxslararo munosabatlar jarayonida bevosita vujudga keluvchi tarbiyaviy munosabatlar jarayonini hamda pedagogik tajriba-sinov va pedagogik amaliyot jarayonlarini uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar deb aytishimiz mumkin.

Mazkur jarayonlarning maqsadi, yo'nalishi, mazmun-mohiyati va ahamiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak ularning o'zaro aloqadorligi va bog'liqligini, ya'ni ularda uzluksiz ta'lim tizimiga xos xususiyatlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin, chunki pedagogik jarayonlar deb atalayotgan soddadan murakkabga qarab davom etayotgan jarayonlarning ixtiyoriy birining o'zgarishi ikkinchisi, uchinchisi va boshqalarining o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tadqiqotlarda "tizim" tushunchasi juda keng qo'llaniladi, masalan, ta'lim tizimi, tarbiya tizimi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari va metodlari tizimi va hokazo.

Tadqiqotchi M.U.Dexqanovanning ta'kidlashicha, tizim – ma'lum bir ketma-ketlikda tartiblangan, nisbatan mustaqil, mantiqan o'zaro uzviy bog'langan va birgalikda umumiy funksiyani bajaruvchi elementlar majmuidir.

N.A.Muslimovning ta'kidlashicha, tizimlilik butun olamning umumiy xususiyatidir. Tabiat, jamiyat, inson faoliyati va fikrlashdagi tizimlilik bunga misol bo'la oladi. Ushbu umumiy xususiyatdan kelib chiqib, "tizimlilik" tushunchasini

jarayonlar va borliqdagi hodisalarning tizim hosil qila olishi, tizimning mavjudligi, moddiy dunyoning hamda uni bilish shakllarining va demak, pedagogik faoliyatning ham tizimli qurilishga ega ekanligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

N.V.Kuzminaning ta'kidlashicha, ijtimoiy tizimning turlaridan biri hisoblangan pedagogik tizim - insonlarga va yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish, ta'lim jarayonini tashkil etish maqsadlariga xizmat qiluvchi turli strukturaviy va funksional bog'liq bo'lgan komponentlar majmuidan iboratdir.

Bizning fikrimizcha, pedagogik tizim umumiy maqsadlar yo'nalishida, funksional vazifalarni amalga oshirish va boshqarishda tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi, alohida xususiyatlarga ega bo'lgan o'zaro bog'liq qismlarning yaxlit holda vujudga kelishidir.

Pedagogik tizimning tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligini inobatga olib, uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi pedagogik tizimni tashkil etadi deb aytishimiz mumkin.

Shunday qilib, pedagogik tizim ta'lim muassasasining maqsadi, vazifasi, ta'lim muassasasi tomonidan tanlangan model, strategiyalari orqali tavsiflanadi. Pedagogik tizim belgilangan maqsad yo'nalishida, uzluksiz ta'lim tizimi subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish, funksional vazifalarini amalga oshirish va boshqarishda tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi, alohida xususiyatlarga ega bo'lgan o'zaro bog'liq qismlarning yaxlit holda vujudga kelishidir.

Demak, uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olgan holda yaxlit pedagogik tizim deb hisoblasak, ularni tashkil etish va boshqarish ham tizimli xususiyatga ega bo'lishi kerak. Pedagogik tizimning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga tizimli yondashuvning mazmun va mohiyatini quyidagi tamoyillar asosida ko'rsatishimiz mumkin:

- uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayon ishtirokchilari mazkur jarayon subyektlari sifatida faoliyat ko'rsatishi, ya'ni pedagogik jarayonlarda subyekt-subyekt munosabatlarining qaror topishi;

- uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayon subyektlari faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligi, izchilligi va o'zaro bog'liqligi;

- majmuaviylilik - pedagogik jarayonlar o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan komponentlar majmui ekanligi;

- integrativlik - harakatlanish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o'zaro birligi;

- o‘zaro bog‘liqlik - uzluksiz ta‘lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlar alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit pedagogik tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi;

- kommunikativlik - pedagogik tizimning tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o‘zaro ta‘sir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

Uzluksiz ta‘lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo‘nalishidagi muammolarning ko‘pqirraliligi va murakkabligi, nafaqat pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni sifat jihatdan o‘zgartirishni nazarda tutadi, balki uning mazmunini takomillashtirish zaruriyatini ham belgilaydi.

Uzluksiz ta‘lim tizimi oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan, oldindan loyihalashtirilgan hamda mavjud imkoniyatlar va ilmiy-pedagogik salohiyat darajasida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar asosiy (ta‘lim-tarbiyaviy) va yordamchi (ta‘minlovchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Uzluksiz ta‘lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarni rivojlantirish asosiy (ta‘lim-tarbiyaviy) va yordamchi (ta‘minlovchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlar ishtirokchilarining faoliyatlari bilan bog‘liq holda, ilmiy-pedagogik salohiyatni boyitish, imkoniyatlarni kengaytirish asosida yanada yangi sifatlarga, yuqori va samarali natijalarga erishishga yo‘naltirilgan va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ulardan foydalanishda samaradorlikka erishish va rivojlantirish uchun odatda belgilangan mezonlarni almashtirish, asosiy va yordamchi jarayonlarni yoki mazkur jarayonlar ishtirokchilarining faoliyatini takomillashtirish zarur bo‘ladi.

Z.K.Ismailova tomonidan ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning metodik asoslarini ochib berib, Respublikamizda ta‘lim tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta‘lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab yangi boshlang‘ich, o‘rta va professional ta‘lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta‘lim dasturlari joriy etiladigan ta‘lim muassasalari tashkil etilishi bo‘yicha takliflar bergan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta‘lim tizimi uchun davlat ta‘lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi 5-son qaroriga 1- ilova
2. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. - Toshkent: Fan, 2006. - 50 b.
3. Dexkanova M.U. Kasb-hunar ta‘limi rahbar xodimlarining malakasini oshirish jarayoniga tizimli yondashuv.: Ped. f.n. ... diss. avtoref. - Toshkent, 2005. – 19 b.

4. Кузьмина Н.В. Методы системного педагогического исследования: Учебное пособие. - Л.-. ЛГУ, 1986.-С. 112.
5. Kamolov, Dostonbek. (2023). ДУХОВНО-НРАВСТВЕННАЯ СРЕДА ОБЩЕСТВА. 1. 128-133. 10.5281/zenodo.10003781.
6. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari.: Ped. f. d. ... diss. avtoref. - Toshkent, 2007. - 45 b.
7. Kamolov, Dostonbek. (2023). ON THE WAY TO THE DIGITAL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN. 10.13140/RG.2.2.11566.18242.
8. Ismailova Z.K.. Ma'naviy-axlokiy tarbiyaning tajribali metodik asoslari. Ped. fan. dokt. ... diss. – T.: 2006. – 345 b.
9. Kamolov, Dostonbek. (2023). MODERN PROBLEMS AND SOLUTIONS OF DEMOCRACY AND MORALITY IN UZBEKISTAN СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ В ОБЛАСТИ ДЕМОКРАТИИ И НРАВСТВЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ. 1. 168-172. 10.5281/zenodo.10113202.
10. Usanov U.A. “Bo'lajak professional ta'limi o'qituvchilarini innovatsion faoliyatini rivojlantirishda o'zbekistonda professional ta'lim muassasalariga berilayotgan e'tibor”.
11. Aliqulov S.T. Usanov U.A. “Oliy ta'lim muassasalarida professional ta'lim yo'nalishining kasbiy tayyorgarligi”.
12. Kamolov, Dostonbek. (2023). O'ZBEKISTON RAQAMLI TA'LIM TIZIMI YO'LIDA. 10.13140/RG.2.2.23857.45921.

SUPPORT RESULT
JOURNALS